



INNOVATION IQTISODIYOT

Ilmiy-amaliy elektron jurnal

2026

№5

ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY

Scientific and practical electronic journal



Indexlanadigan bazalar:  Google Scholar  Crossref  OpenAIRE  CYBERLENIKA



INNOVATION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY
ELEKTRON JURNAL

5-jild
5-son
May, 2026

May, 2026
Volume 5
Number 5

ИННОВАЦИОННАЯ
ЭКОНОМИКА
Научно-практический
электронный журнал

INNOVATIVE ECONOMY
Electronic scientific and
practical journal



INNOVATSION IQTISODIYOT

ILMIY-AMALIY ELEKTRON JURNAL

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Muassis:

Qarshi davlat texnika universiteti

Tahririyat Kengashi raisi:

R.X.Ergashev, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Tahririyat Kengashi raisi o‘rinbosari:

S.N.Xamrayeva, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Mas’ul muharrir:

N.A.Ochilova, PhD, dotsent

Texnik muharrir:

S.J.Qulmurotov

Jurnal har oyda bir marotaba elektron shaklda jurnalning rasmiy sayti orqali nashr etiladi.

Tahririyat manzili:

180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko‘chasi 225-uy Tel.:

+998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Faks: +998 (75) 221 1395

innoeconomic@kstu.uz

“Innovatsion iqtisodiyot” ilmiy - amaliy elektron jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2025-yil 5-apreldagi 369-sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

Jurnalda quyidagi ruknlar asosida maqolalar nashr etiladi:

1. Nazariya va metodologiya
2. Raqamli iqtisodiyot
3. Mintaqa va tarmoqlar iqtisodiyoti
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik
5. Inson kapitali iqtisodiyoti
6. Menejment va marketing
7. Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
8. Moliya, kredit va investitsiya
9. Ekonometrika va statistika
10. Xizmat ko‘rsatish va turizm sohasi

TAHRIRIYAT KENGASHI:

Tahririyat Kengashining xalqaro a'zolari:

Ovchinnikov Viktor Nikolayevich - i.f.d., professor, akademik (Janubiy Federal Universitet, Rossiya)

Solodovnikov Sergiy Yurevich - i.f.d., professor (Belorussiya milliy texnika universiteti)

Sidorov Viktor Aleksandrovich - i.f.d., professor, (Kuban davlat universiteti)

Shevchenko Igor Viktorovich - i.f.d., professor (Kuban davlat universiteti, Rossiya)

Kusainov Xalel Xaymullievich - i.f.d., professor, akademik (Qozog‘iston Respublikasi Milliy fanlar akademiyasi)

Samandarzoda Iskandar Hakim - Iqtisodiyot fanlari doktori (Sh.Shotemur nomidagi Tojikiston agrar universiteti)

Gibadullin Artur Arturovich - i.f.n. dotsent (Milliy tadqiqot universiteti, Moskva energetika instituti, Rossiya)

Sergey Aleksandrovich Voynash - ilmiy xodim (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Valentina Nikolayevna Pulyayeva - iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya Federatsiyasi hukumati qoshidagi Moliya universiteti)

Dmitriy Evgenievich Morkovkin, iqtisod fanlari nomzodi, dotsent (Moliya universiteti, Rossiya Federatsiyasi hukumati)

Sadriddinov Manuchehr Islomiddinovich - i.f.d., professor, (Tojikiston Respublikasi Milliy fanlar Akademiyasi)

Perskaya Viktoriya Vadimovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Molchanov Igor Nikolayevich - i.f.d., professor, (Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti)

Basova Mariya Mixaylovna - i.f.d., professor, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Aleksandr Leonidovich Chupin, iqtisod fanlari nomzodi (P.Lumumbi nomidagi Rossiya xalqlar do‘stligi universiteti)

Nezamaykin Valeriy Nikolayevich - i.f.d., professor, (Rossiya davlat gumanitar universiteti)

Nikonorova Alla Vladimirovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Dmitriyeva Olga Aleksandrovna - i.f.n., dotsent, (Rossiya Federatsiyasi hukumati huzuridagi Moliya universiteti)

Shvets Yuriy Yuryevich - i.f.n., dotsent, (Rossiya Fanlar akademiyasining Nazorat fanlari instituti)

Kolosova Yelena Valeryevna - i.f.n., dotsent, (Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti)

Tahririyat Kengashi a'zolari:

Gulyamov Saidaxror Saidaxmedovich - i.f.d., professor, akademik

Pardayev Mamayunus Qarshiboyevich - i.f.d., professor

Navruz-zoda Baxtiyor Negmatovich - i.f.d., professor

Xatamov Ochildi Qurbonovich - i.f.d., professor

Fayziyeva Shirin Shodmonovna - i.f.n., professor

Jumayeva Gulrux Jo‘raqulovna - i.f.n., professor

Egamberdiyeva Salima Raimovna - i.f.n., dotsent

Erkayeva Gulbahor Panjiyevna - i.f.n., professor

Yakubova Shamshinur Shuxratovna - i.f.d., (DSc) dotsent

Amirqulov Shuhrat Olimovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Samiyeva Gulnoza Toxirovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aliqulov Azamat Tuyg‘unovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Aminov Fazlitdin Baxadirovich - i.f.n., dotsent

Xo‘jaqulova Nigora Rustamovna - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Turobov Sherzod Alisherovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Alimova Munisa Yulchiyevna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Ergasheva Nasiba Raxmatullayevna - i.f.d., (DSc), dotsent

Boboqulov Sanjar Baxromkulovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Djalilov Raxmonkul Hamidovich - i.f.f.d., (PhD), dotsent

Nomazov Baxrom Bobomurodovich - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Alimxanova Nigora Alimxanovna - i.f.f.d. (PhD) dotsent

Jonuzokov Mirzabek Kulmamatovich - i.f.f.d. (PhD), dotsent

Muxammadiyeva Yulduz Yusupovna - i.f.f.d. (PhD)

Tursunova Aziza Xoshimovna - i.f.f.d. (PhD)

Xolliyev Sherali Baxtiyorovich - i.f.f.d. (PhD)

Panjiyev Samijon Aliqulovich - PhD, dotsent



ИННОВАЦИОННАЯ ЭКОНОМИКА

Научно-практический электронный журнал

ISSN: 3030-315X

ojs.kstu.uz

Учредитель:

**Каршинский государственный технический
университет**

Председатель редакционного совета:

Р.Х.Эргашев, доктор экономических наук, профессор

Заместитель председателя редакционного совета:

С.Н.Хамраева, доктор экономических наук,
профессор

Ответственный редактор:

Н.А.Очилова, PhD, доцент

Технический редактор:

С.Ж.Кулмуротов

Журнал издается один раз в месяц в
электронной форме и публикуется через
официальный сайт журнала.

Адрес редакции:

180100, г. Карши, ул. Мустакиллик, дом 225

Тел: +998 (75) 221 09 23

+998 (93) 902 72 63

Факс: +998 (75) 221 1395

E-mail: innoeconomic@kstu.uz

Научно-практический электронный журнал
«Инновационная экономика» включён в перечень
национальных научных изданий на основании
решения Президиума Высшей аттестационной
комиссии при Министерстве высшего образования,
науки и инноваций Республики Узбекистан от 5
апреля 2025 года № 369.

**В журнале публикуются статьи по
следующим рубрикам:**

1. Теория и методология
2. Цифровая экономика
3. Экономика регионов и отраслей
4. Малый бизнес и частное
предпринимательство
5. Экономика человеческого капитала
6. Менеджмент и маркетинг
7. Бухгалтерский учет, экономический анализ и
аудит
8. Финансы, кредит и инвестиции
9. Эконометрика и статистика
10. Сфера услуг и туризм

Редакционная коллегия:

Международные члены Совета редколлегии:

Овчинников Виктор Николаевич - д.э.н., профессор, академик
(Южный федеральный университет, Россия)

Солодовников Сергей Юрьевич - д.э.н., профессор
(Белорусский национальный технический университет)

Виктор Александрович Сидоров - д.э.н., профессор,
(Кубанский государственный университет)

Шевченко Игорь Викторович - д.э.н., профессор (Кубанский
государственный университет)

Кусаинов Халел Хаймуллович - д.э.н., профессор, академик
(НААН Республика Казахстан)

Самандарзода Искандар Хаким - д.э.н., профессор
(Таджикистанский аграрный университет им. Ш.
Шотемура)

Гибатуллин Артур Артурович - к.э.н., доцент
(Национальный исследовательский университет
«Московский энергетический институт»)

Войнаш Сергей Александрович - научный сотрудник
(Российского университета дружбы народов имени
П.Лумумби)

Пуляева Валентина Николаевна - к.э.н., доцент
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Морковкин Дмитрий Евгеньевич - к.э.н., доцент
(Финансовый университет Правительство РФ)

Садриддинов Манучехр Исламиддинович - д.э.н.,
профессор (Национальная академия наук Республики
Таджикистан)

Перская Виктория Вадимовна - д.э.н., профессор
(Финансовый университет при Правительстве РФ)

Молчанов Игорь Николаевич - д.э.н., профессор (Московский
государственный университет имени М.В. Ломоносова)

Басова Мария Михайловна - д.э.н., профессор
(Финансового университета Российской Федерации)

Чупин Александр Леонидович - к.э.н. (Российского
университета дружбы народов имени П. Лумумби)

Неземайкин Валерий Николаевич - д.э.н., профессор (РГТУ)

Никонорова Алла Владимировна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Дмитриева Ольга Александровна - к.э.н., доцент
(Финансового университета Российской Федерации)

Швец Юрий Юрьевич - к.э.н., доцент (Институт проблем
управления РАН)

Колосова Елена Валерьевна - к.э.н., доцент (Российский
экономический университет имени Г.В. Плеханова)

Члены Совета редколлегии:

Гулямов Саидхорр Саидхмедович - д.э.н., профессор,
академик

Пардаев Мамаюнус Каршибоевич - д.э.н., профессор

Навруз-зода Бахтиёр Негматович - д.э.н., профессор

Хатамов Очилди Курбанович - д.э.н., профессор

Файзиева Ширин Шодмоновна - к.э.н., профессор

Жумаева Гулрух Журакуловна - к.э.н., профессор

Эгамбердиева Салима Раимовна - к.э.н., доцент

Еркаева Гулбахор Панжиевна - к.э.н., профессор

Якубова Шамина Шухратовна - д.э.н., (DSc), доцент

Амиркулов Шухрат Олимович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Самиева Гулноза Тохировна - д.ф.э.наук., (PhD), доцент

Алигулов Азамат Туйгунович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Аминов Фазлитдин Бахадирович - к.э.н., доцент

Хужакулова Нигора Рустамовна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Туробов Шерзод Алишерович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимова Муниса Юльчиевна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Эрашьева Насиба Рахматуллаевна - д.э.н., (DSc), доцент

Бобокулов Санжар Бахромкулович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джалилов Рахмонкул Хамидович - д.ф.э., (PhD), доцент

Номазов Бахром Бобомуродович - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Алимханова Нигора Алимхановна - д.ф.э.н., (PhD), доцент

Джанузакон Мирзабек Кулмаматович - д.ф.э.н., (PhD),
доцент

Мухаммадиева Юлдуз Юсуповна - д.ф.э.н., (PhD)

Турсунова Азиза Хошимовна - д.ф.э.н., (PhD)

Холлиев Шерали Бахтиёрович - д.ф.э.н., (PhD)

Панджиев Самиджон Аликулич - PhD, доцент



Xizmat ko'rsatish va turizm sohasi

Service sector and tourism

Сфера услуг и туризм



RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA INNOVATSION XIZMATLAR BOZORIDA SAMARADORLIK MASALALARI

Mirzaev Kulmamat Djanzakovich, Egamkulov Davlatbek Bahodir o'g'li

ВОПРОСЫ ЭФФЕКТИВНОСТИ НА РЫНКЕ ИННОВАЦИОННЫХ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВОЙ ЭКОНОМИКИ

Мирзаев Кулмамат Джанзакович, Эгамкулов Давлатбек Баходир ўғли

ISSUES OF EFFICIENCY IN THE MARKET OF INNOVATIVE SERVICES UNDER THE CONDITIONS OF DIGITAL ECONOMY

Mirzaev Kulmamat Djanzakovich, Egamkulov Davlatbek Bakhodir o'g'li

Received: May 10, 2026 May: May 12, 2026 May: May 19, 2026 Published: June 1, 2026

Annotatsiya: Ushbu maqolada biz xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion asosda rivojlantirish asosida raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari tadqiq etamiz. Shuningdek, respublikamizda raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlar samaradorligining ichki imkoniyatlari tahlil qilinib, uni oshirish yo'llari ilmiy-amaliy jihatdan asoslangan.

Kalit so'zlar: innovatsion xizmatlar, raqamli iqtisodiyot, innovatsion xizmatlar samaradorligi, raqamli transformatsiya, sun'iy intellekt, innovatsion infratuzilma, raqamli xizmatlar, it-xizmatlar, startup, elektron platforma, davlat xizmatlari.

Аннотация: В данной статье рассматриваются возможности использования цифровых технологий для инновационного развития сектора услуг. Также анализируются внутренние возможности повышения эффективности инновационных услуг в условиях цифровой экономики нашей республики и научно и практически обоснованы пути ее повышения.

Ключевые слова: инновационные услуги, цифровая экономика, эффективность инновационных услуг, цифровая трансформация, искусственный интеллект, инновационная инфраструктура, цифровые услуги, ИТ-услуги, стартап, электронная платформа, государственные услуги.

Abstract: This article examines the potential of using digital technologies for innovative development in the service sector. It also analyzes the internal potential for increasing the efficiency of innovative services in the context of our republic's digital economy and provides scientific and practical justification for ways to achieve this.

Keywords: innovative services, digital economy, efficiency of innovative services, digital transformation, artificial intelligence, innovative infrastructure, digital services, IT services, startup, electronic platform, government services.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashuv jarayonlari chuqurlashib, raqamli texnologiyalar jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda innovatsion xizmatlarni rivojlantirish va ularni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish masalasi alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xizmat ko'rsatish sohasi iqtisodiyotning eng dinamik tarmoqlaridan biri sifatida mamlakat yalpi ichki

mahsulotidagi salmoqli ulushi bilan birga, aholi bandligi va farovonligini ta'minlashda ham muhim o'rin tutadi. Xususan, 2025 yilda O'zbekistonda xizmatlar hajmi qariyb 15 foizga o'sib, 82 milliard dollarga yetgani⁸⁴ bu sohaning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini yaqqol namoyon etmoqda.

So'nggi yillarda respublikamizda xizmat ko'rsatish sohasini innovatsion asosda rivojlantirish,

⁸⁴ <https://uza.uz/oz/posts/joriy-yilning-ozida-xizmatlar-hajmi-qariyb-15-foizga-osib-82-milliard-dollariga-yetdi> 800798
<https://ojs.kstu.uz/index.php/ej>



unga raqamli texnologiyalarni joriy etish borasida keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonida "xizmat ko'rsatish sohasini jadal rivojlantirish, uning yalpi ichki mahsulotdagi ulushini oshirish, aholiga ko'rsatilayotgan xizmatlar turi va sifatini yaxshilash" [2] muhim vazifa sifatida belgilangan. Shuningdek, 2025 yilda "... xizmatlar sohasini rivojlantirish, xususan, IT, fintex, konsalting, transport-logistika kabi yuqori daromad keltiruvchi xizmat turlarini kengaytirish, 2026 yilda xizmatlar bozorini 100 milliard dollardan oshirish vazifasi qo'yilgan"⁸⁵.

Xizmat ko'rsatish sohasida innovatsion yondashuvlarni joriy etish va ularni raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish jarayoni bir qator ilmiy-amaliy muammolarni keltirib chiqarmoqda. Jumladan, innovatsion xizmatlarning iqtisodiy samaradorligini baholashning aniq mezonlari, ularni raqamli transformatsiya qilishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, shuningdek, mavjud infratuzilma va kadrlar salohiyatining zamonaviy talablarga muvofiqligi masalalari bugungi kunda dolzarb ilmiy tadqiqot yo'nalishlaridan hisoblanadi. Ayniqsa, sun'iy intellekt, "aqli" texnologiyalar va elektron platformalarning joriy etilishi xizmatlar sifatiga, ularning qamroviga va iqtisodiy samaradorligiga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, bu jarayonlarni jadallashtirish imkoniyatlari alohida tadqiq etilishini taqozo etmoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamli iqtisodiyot sharoyitida innovatsion xizmatlar bozori va uning samaradorligi masalalari so'nggi o'n yillikda global ilmiy tadqiqotlarning markaziy yo'nalishlaridan biriga aylandi. Raqamli transformatsiya xizmat ko'rsatish sohasida an'anaviy biznes modellarni tubdan o'zgartirib, samaradorlikni oshirishning yangi mexanizmlarini yaratmoqda. Xalqaro tajriba shuni ko'rsatadiki, raqamli texnologiyalarni xizmatlar bozoriga joriy etish xarajatlarni kamaytirish, mijozlar bilan aloqani yaxshilash va yangi qiymat zanjirlarini shakllantirish imkonini beradi.

Markaziy Osiyo davlatlari olimlari ham ushbu masalalarga katta e'tibor qaratmoqdalar. Xususan, o'zbekistonlik iqtisodchi olim A.T.Karimov raqamli iqtisodiyotda xizmatlar bozori samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni o'rganib, raqamli infratuzilmaning rivojlanish darajasi va aholining raqamli savodxonligi asosiy determinantlar sifatida ajratib ko'rsatgan⁸⁶. Uning tadqiqotida O'zbekiston misolida bank xizmatlari, telekommunikatsiya va transport-logistika sohalarida raqamli transformatsiyaning samaradorlikka ta'siri empirik tarzda baholangan. Markaziy Osiyodan tashqari, postsovet hududidagi boshqa olimlarning ishlari ham mavzuning yoritilishida muhim ahamiyatga ega.

Rossiyalik iqtisodchi V.I.Krasnov raqamli iqtisodiyotda xizmatlar bozorining samaradorlik ko'rsatkichlarini baholashning metodologik asoslarini ishlab chiqqan. Uning taklif etgan KPI tizimi raqamli xizmatlar uchun maxsus moslashtirilgan bo'lib, joriy va istiqbolli samaradorlikni birgalikda baholash imkonini beradi⁸⁷.

Xalqaro miqyosda esa Marić va boshqalar tomonidan olib borilgan tizimli adabiyotlar sharhida raqamli servitizatsiya tadqiqotlarining xronologik evolyutsiyasi va asosiy mavzulari (digitization, servitization, jarayon innovatsiyasi va mahsulot innovatsiyasi) batafsil yoritilgan. Ushbu tadqiqotda raqamli servitizatsiyaga ta'sir etuvchi beshta determinant o'zgaruvchi va uning ta'sirida bo'lgan javob o'zgaruvchilari (firma raqobatbardoshligi, firma samaradorligi, moliyaviy samaradorlik, firma rentabelligi va barqaror samaradorlik) identifikatsiya qilingan⁸⁸.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot **aralash metod (mixed-method)** yondashuviga asoslangan bo'lib, u **miqdoriy (quantitative)** va **sifatli (qualitative)** usullarni uyg'unlashtirgan holda olib borildi. Mazkur yondashuvning tanlanishi tadqiqot mavzusining murakkab va ko'p qirrali ekanligi bilan izohlanadi: raqamli iqtisodiyot sharoyitida innovatsion xizmatlar bozorining samaradorligi nafaqat o'lchanadigan iqtisodiy ko'rsatkichlar (miqdoriy jihat), balki institutsional muhit, boshqaruv qarorlari va raqamli madaniyat kabi sifat jihatlarining ta'sirini ham o'rganishni talab qiladi.

Tadqiqot dizayni quyidagi ketma-ket bosqichlarni o'z ichiga oladi:

- nazariy asoslarni ishlab chiqish va adabiyotlar sharhi (oldingi bo'limda keltirilgan);
- miqdoriy ma'lumotlarni to'plash va statistik tahlil qilish;
- sifatli ma'lumotlarni to'plash (intervyu, ekspert baholash) va kontent-tahlil;
- natijalarni triangulyatsiya qilish (miqdoriy va sifatli natijalarni solishtirish);
- xulosa va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning **asosiy maqsadi** – raqamli iqtisodiyot sharoyitida Markaziy Osiyo (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, Turkmaniston) innovatsion xizmatlar bozorining samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash va baholash hamda samaradorlikni oshirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlar iqtisodiy o'sishning muhim drayveriga aylanmoqda. Shu sababli Respublikada "... iqtisodiyotni texnologik innovatsion o'sish modeliga o'tkazishdan iborat..."⁸⁹ ustuvor yo'nalishdan kelib chiqib raqamli iqtisodiyot sharoitida xizmat ko'rsatishni innovatsion

⁸⁵ Murojaatnoma

⁸⁶ Karimov, A. T. (2023). Raqamli iqtisodiyotda xizmatlar bozori samaradorligi: O'zbekiston misolida empirik tahlil. O'zbekiston Iqtisodiyot Jumali, 45(2), 78–94.

⁸⁷ Krasnov, V. I. (2022). Metodologiya otsenki effektivnosti rynka uslug v tsifrovoy ekonomike. Voprosy Ekonomiki, 7(2), 55–72.

⁸⁸ Marić, J., Opazo-Basáez, M., & Vendrell-Herrero, F. (2024). Exploring the landscape of digital servitization: A systematic review and future research agenda. Journal of Service Management, 35(2), 210–239. <https://doi.org/10.1108/JOSM-05-2023-0201>

⁸⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, PF-60-son.




asosda taraqqiy ettirishni taqozo etiladi. Raqamli iqtisodiyot — bu axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida ishlab chiqarish, taqsimlash va iste'mol jarayonlarini amalga oshiruvchi tizimdir.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlar ko'rsatish — bu yangi texnologiyalar, raqamli

platformalar, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, “bulutli” hisoblash, fintech, e-commerce va boshqa ilg'or yechimlarga asoslangan xizmat ko'rsatish faoliyatidan iborat.

Bunday xizmatlarning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:



1-rasm. Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmat ko'rsatishning xususiyatlari

Tadqiqot natijalariga ko'ra Respublikada raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmat ko'rsatish darajasi uning samaradorligini baholash bilan belgilanadi. Bizning fikrimizcha, raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlar samaradorligini baholashda quyidagi mezonlar qo'llaniladi:

- iqtisodiy samaradorlik (daromadlilik, rentabellik, xarajatlarni qisqartirish);
- ijtimoiy samaradorlik (bandlik, xizmat sifati, aholining qamrovi);
- texnologik samaradorlik (avtomatlashtirish darajasi, raqamlashtirish ko'rsatkichi);
- institutsional samaradorlik (normativ-huquqiy muhit, raqobat muhiti).

Raqamli iqtisodiyot sharoitida samaradorlik nafaqat moliyaviy natijalar bilan, balki iste'molchilar ehtiyojiga mos ularning ehtiyojini qondirish darajasi bilan ham o'lchanadi.

Raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlar samaradorligi raqamli texnologiyalarga mos bir qator yo'nalishlar transformatsiya yo'nalishlarini taqozo etadi. Bular quyidagilardan iborat:

1.Platformaviy modelga o'tish – xizmatlar mobil ilovalar va onlayn platformalar orqali ko'rsatilmogda (masalan, fintech, e-commerce).

2.Ma'lumotlarga asoslangan boshqaruv (data-driven management) – katta ma'lumotlar (Big Data) va sun'iy intellektidan foydalanish.

3.Masofaviy xizmat ko'rsatish – telemeditsina, onlayn ta'lim, masofaviy bank xizmatlari.

4.Avtomatlashtirish va robotlashtirish – xizmat ko'rsatish jarayonlarida inson omilini qisqartirish.

Shu bilan birga tahlillar natijasi shuni ko'rsatadiki innovatsion va raqamli iqtisodiyot faoliyatining o'ziga xos va muhim jihatlari tadqiq etildi (1-jadval).

1-jadval.

Innovatsion va raqamli iqtisodiyot faoliyatining o'ziga xos muhim jihatlari⁹⁰

№	Iqtisodiyotdagi innovatsion faoliyat	Raqamli iqtisodiyot faoliyati
1	Innovatsion texnologiyalar asosida faoliyat yuritish	Raqamli texnologiyalar asosida faoliyat yuritish
2	Global, mintaqaviy va indivudal miqyosni qamrab oladi	Raqamlashtirishda faqat global miqyosni qamrab oladi
3	Chuqur ilmiy bilim, fan yutuqlari, ilmiy amaliy ishlanmalar natijalariga tayanadi	Professional soha mutaxassisllari, axborot texnologiyalari tamonidan olingan natijalarga tayanadi
4	Yangi g'oyalar, yangi texnologiyalar, yangi loyihalar yaratish tizimiga asoslanadi	Axborotlarni raqamlashtirish tizimiga asoslanadi
5	Fan, tadqiqot natijalari “bilimlar iqtisodiyoti”ga asoslangan tizim asosida faoliyati yo'lga qo'yiladi	“Su'niy” intellektlardan foydalanish imkoniyatini beruvchi tizim asosida shakllantiriladi

⁹⁰ Қ.Ж.Мирзаев, С.Б. Бобокулов, Б.Қ.Жанзаков, Рақамли иқтисодиёт./ Ўқув қўлланма/ Самарқанд.: САМИСИ, “СТАП-СЕЛ” МЧЖ. Нашриёт матбаа бўлими, -2022 й. 9-бет



Xususan, hozirgi davrda davlatimizni “Raqamli O‘zbekiston 2030” dasturini amalga oshirishda eng tezkor va samarali yo‘llari sifatida innovatsion texnologiyalarni keng joriy qilish orqali ko‘zlangan maqsadlarimizga erishishimiz mumkin. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib raqamli iqtisodiyoti sharoitida innovatsion faoliyat iqtisodiyotdagi yangi o‘zgarishlarni, yangi yangilanishlarni, yangi g‘oyalarni, o‘z ichiga faoliyat hisoblanadi.

Shunday ekan, innovatsion faoliyat natijasida yaratilayotgan innovatsiyalar maxsulotlar va xizmatlarning tannaxini kamaytirishga, bozor talabini kengaytirishga hamda inson turmush faravonligini oshirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda elektron hukumat tizimining rivojlanishi, davlat xizmatlarining yagona portali va raqamli to‘lov tizimlarining kengayishi innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirishga xizmat qilmoqda.

Tadqiqot ishida amalga oshirilgan tahlil natijalaridan kelib chiqib raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlarni rivojlantirish va samaradorligini oshirishga ta’sir etuvchi bir qator omillar aniqlanib, ular bizning nazarimizda quyidagilardan iborat:

- xizmat ko‘rsatish jarayonida texnologik infratuzilma (internet tezligi, mobil aloqa qamrovi, server va ma’lumotlar markazlari);

- xizmat ko‘rsatish jarayonida kadrlar salohiyati (IT mutaxassislar, startup ekotizimi);

- xizmat ko‘rsatish jarayonida investitsion muhit (venchur kapital, davlat grantlari);

- xizmat ko‘rsatish jarayonida normativ-huquqiy baza (raqamli imzo, ma’lumotlarni himoya qilish qonunchiligi);

- xizmatlar sohasida raqobat muhitining mavjudligi va boshqalardan iborat.

Bunday omillar ta’siri ayniqsa Respublikamizda innovatsion start-uplarni qo‘llab-quvvatlanishi, eksportbop IT xizmatlarini rivojlantirib, xorijiy investorlarni(investitsiyalarni) jalb etish imkoniyatini kengaytiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Tadqiqot natijalariga ko‘ra raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlar samaradorligini oshirishda bizning nazarimizda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq hisoblanadi:

- birinchidan, raqamli iqtisodiyotga mos innovatsion xizmatlarni baholash me’zonlarini takomillashtirish va shu asosida samaradorlikni oshirish imkoniyatlarini asoslash;

- ikkinchidan, innovatsion xizmatlar transformatsiyalashuvini tizimli amalga oshirish va bunda innovatsiyaga asoslangan raqamli xizmatlarning yangi turlaridan keng foydalanish;

- uchinchidan, raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlarni rivojlantirish samaradorligini oshirish imkoniyatini yaratuvchi bir qator omillardan, jumladan sun’iy intellektga asoslangan raqamli texnologik infratuzilma, yuqori intellektual salohiyatga ega kadrlar ta’minoti, yangi iqtisodiy imkoniyatlar yaratuvchi investitsiya muhiti va boshqa shu kabilarning yaratilganligi bilan ifodalanadi.

-to‘rtinchidan, Respublikamizda raqamli iqtisodiyot sharoitida innovatsion xizmatlar samaradorligini ta’minlashda “drayver” strategik yo‘nalishlarni jumladan innovatsiyalarga asoslangan “yashil” iqtisodiyot, innovatsion “yashil” energetika, raqamli innovatsion xavfsizlik kabilarni belgilanganligini bilan xarakterlanadi.

Muallif haqida / Сведения об авторе / Author details

1. Mirzaev Kulmamat Djanzakovich “Raqamli iqtisodiyot” kafedrası mudiri, i.f.d. professor, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti / Мирзаев Кулмамат Джанзакович Заведующий кафедрой «Цифровая экономика», доктор экономических наук, профессор, Самаркандский институт экономики и сервиса / Mirzaev Kulmamat Djanzakovich Head of the Department of Digital Economy, DSc, Professor at the Samarkand institute of economics and service.

ORCID: <https://orcid.org/0009-0008-8558-2455>

E-mail: mirzayevkulmamat@gmail.com

2. Egamkulov Davlatbek Bahodir o‘g‘li MI-124 guruh magistranti, “Iqtisodiyot” mutaxassisligi, Samarqand iqtisodiyot va servis instituti / Эгамкулов Давлатбек Баходир ўғли, магистрант группы МИ-124, специальность «Экономика», Самаркандский институт экономики и сервиса / Egamkulov Davlatbek Bakhodir o‘g‘li, master’s student of group MI-124, specializing in Economics, Samarkand institute of economics and service.

E-mail: davlatbekegamkulov88@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-2587-2566-5557>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashining 30.12.2025 yildagi 1598-V-son “O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning 2025-yil 26-dekabrda Oliy Majlis va O‘zbekiston xalqiga qilgan Murojaatnomasidan kelib chiqadigan vazifalar to‘g‘risida”gi qarori / <https://president.uz/oz/lists/view/8834>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 28.01.2022 yildagi "2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni, PF-60-son.

3. O‘zbekiston Respublikasining "Innovatsion faoliyat to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent, 2020 yil.

4. Mirzayev Q.J., Shavqiyev E.Sh., Janzakov B.K. Innovatsion iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. – T.: "Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi", 2020. – 298 b.

5. Қ.Ж.Мирзаев, С.Б. Бобокулов, Б.Қ.Жанзаков, Рақамли иқтисодиёт, Ўқув қўлланма/ Самарқанд.: СамИСИ, “СТАП-СЕЛ” МЧЖ. Нашриёт матбаа бўлими, 2022 й. 9-бет

6. Pardayev M.Q. va boshqalar. Raqamli iqtisodiyot va uning rivojlanish istiqbollari. – T.: "Iqtisodiyot", 2021. – 256 b.

7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi ma’lumotlari. – Toshkent, 2025.



INNOVATION
IQTISODIYOT
ILMIY-AMALIY ELEKTRON
JURNAL

ISSN: 3030-315X



t.me/kstu_uz



Qarshi shahri,
Mustaqillik ko'chasi 225



www.kstu.uz
www.ojs.kstu.uz